

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KONSONANTLAR SISTEMASI VA FARQLARI

Ismailova Barno Yuldashbayevna

o'qituvchi, UrDU

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek va ingliz tili konsonantlar sistemasi yoritish nazarda tutilgan bo'lib, farqlari va o'xshash tovushlar ikki tilda ham misollar bilan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *konsonat, sistema, interferensiya, fasilitatsiya, funksional, tovush, fonema, harf.*

Annotation: *The article is dedicated to be analyzed uzbek and English consonant system. The material is compared with the similarities and differences of both languages consonants.*

Key words: *Consonant, system, interference, facilitation, functional, sound, phoneme, letter.*

Fonetika deganda eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o'rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (grekcha phonetikos - "tovushga, ovozga hos" ma'nosini anglatadi) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'rganish manbaining funksional tomoniniginiga emas, balki nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossasini va til sohiblari tomonidan qabul qilinishini ham o'rganadi. Fonetikada tilshunoslikning boshqa fan sohaları adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida 26 ta harf va 44ta tovush mavjud. Shulardan 20 tasi unli tovush, 24 tasi undosh tovushlardir. Undosh tovushlarga quyidagilar kiradi: [b] bed- 'kravat', [d] do- 'bajarmok', [f] safe- 'xafsiz', [g] good- 'yaxshi', [h] hat- 'qalpok', [j] you- 'siz', [k] cat- 'mushik', [l] allow- 'ruxsat bermoq', [m] me- 'menga', [n] no- 'yo'k', [p] put- 'qo'ymok', [r] run- 'yugurmoq', [s] soon- 'tez', [t] talk- 'suhbat', [v] very- 'juda', [w] win- 'g'olib', [z] zoo- 'zo'park', [ʃ] ship- 'kema', [ʒ] measure- 'o'lchamok', [ŋ] sing- 'kuylamok', [tʃ] cheap- 'arzon', [θ] thin- 'nozik', [ð] then- 'o'sha vaqtda', [dʒ] june- 'iyun'. [Iriskulov, 2007, b. 7].

O'zbek tilida 29ta harf bo'lib shundan 6tasi unli 23ta undosh va 1ta tu'tuq belgisi mavjud. O'zbek tilida ham harf va tovushlar soni bir xil emasdir. O'zbek tilda undoshlar qatoriga [b], [d], [z], [g], [v], [g'], [j]jo'ja, [y], [m], [n], [ng], [l], [r], [p], [t], [s], [f], [k], [ch], [sh], [q], [h], [x] tovushlari kiradi.

Masalan: Bola-boy, donolik-wisdom, ziyrak-sharp,

Kitob- book, maqsad- aim, pishloq-cheese

Mazkur tillarda undosh tovushlar jarangli va jarangsizlarga ajraladi.

Ingliz tilidagi jarangsiz tovushlar: [p], [t], [k], [tʃ], [f], [s], [h], [θ], [ʃ] xisoblansa, o'zbek tilida esa kuyidagi jarangsiz tovushlar mavjud: [p], [t], [s], [f], [k], [x], [ch], [sh],

[q], [h]. Demak ingliz tilida jarangsiz tovushlar soni 9 ta, o'zbek tilida jarangsiz undoshlar soni 10 ta. Ingliz tilida thank/θæŋk/ - tashakkur so'zidagi /θ/ tovushi o'zbek tilida uchramaydi. O'zbek tilidagi qodir, Xorazm so'zlaridagi /q/ va /x/ tovushlari ingliz tilida uchramaydi.

Masalan. Put [put] qo'ymoq, feeling [fi:liŋ] hissiyot,
Talk [tɔ:k] suxbatlashmoq, chip [tʃip] parcha,
Ship [ʃip] kema, thunder [θʌndə(r)] chaqmoq

Ingliz tilida jarangli [b], [d], [g], [dʒ], [v], [ŋ], [z], [ð], [m], [n], [ʒ], [w], [l], [r], [j] tovushlari mavjud bo'lsa, o'zbek tilida jaranglilarga [b], [d], [z], [g], [v], [g'], [j], [m], [n], [ŋ], [y], [l], [r] tovushlari kiradi. Ingliz tilida jarangli undoshlar soni 15 tacha, o'zbek tilida esa 13 ta. Ingliz tilidagi window-oyna, that - ana u so'zlaridagi [w] va [ð] tovushlari o'zbek tilida mavjud emas. O'zbek tilida g'alaba so'zidagi [g'] tovushi ingliz tilida uchramaydi.

[Iriskulov, 2007, b. 21]

Bu tovushlar quyidagi misollarda uchraydi:

Bog [bɔg] batqoqlik, glass [glæs] shisha,
Dispute [dɪspju:t] janjal monkey [mʌŋki] maymun.

Ingliz va o'zbek yozuvlarida, ba'zi bir undoshlarning turli xil harflar orqali ifodalanishini uchratish mumkin, masalan; ingliz undoshlari [θ], [ð], [w] o'zbek tilida mavjud emas, [x], [g'], [q] undoshlari esa o'zbek tiliga mansub bo'lib, ular ingliz tilida yo'q. O'zbek tilida [t], [d] tovushlari til oldi undoshlari, ingliz tilida [t], [d] til alveolar va apical hisoblanadi. O'zbek tilidagi [s, z, sh, j] tovushlarining ingliz tilidagi vazifadoshi [s, z, ʃ, ʒ] dir. O'zbek tilida [s, z] dorsal, [sh, j] til oldi undoshlari, ingliz tilida [s, z] apical, [ʃ, ʒ] til oldi undoshlaridir.

O'zbek va ingliz tili undoshlar sistemasini taqqoslaganda birinchi bo'lib ularning fonemalarini keltirib o'tish lozim. Ingliz tilida 24ta undosh fonema mavjud: |p|, |b|, |t|, |s|, |k|, |g|, |n|, |ŋ|, |l|, |m|, |h|, |v|, |d|, |z|, |ʃ|, |ʒ|, |tʃ|, |dʒ|, |w|, |r|, |j|, |θ|, |ð|, |f|.

O'zbek tili undoshlari 23ta fonemadan tashkil topgan |p|, |b|, |f|, |v|, |s|, |z|, |t|, |d|, |sh|, |j|, |k|, |g|, |x|, |g'|, |k|, |h|, |n|, |l|, |r|, |y|, |ch|, |m|, |ŋ|.

Ba'zi ingliz undoshlari, masalan, [θ, ð, w] ,o'zbek tilida ekvivalentga ega emas. Shuningdek ba'zi o'zbek [x, g', q] undoshlari ingliz tilida ham uchramaydi. Ba'zi undoshlar artikulyatsion holatiga ko'ra va son jihatdan ingliz va o'zbek tillarida ancha o'xshash va farq tomonlari bor ekanligidan darak beradi..Masalan, o'zbek tilida [t, d] undoshlari til oldi va dorsaldir, ingliz tilida esa /t,d/ konsonantlari alveolyar va apikaldir. O'zbek tilidagi portlovchi /q/ undoshi ingliz tilida uchramaydi.

Sirg'aluvchilar o'rtasida o'zbek tilidagi [s, z, sh, j] undoshlari, ingliz tili vazifadoshlari [s, z, ʃ, ʒ]dan ancha farq qilib, og'iz bo'shlig'ida old tomondan talaffuz qilinadi. O'zbek tilida [s, z] dorsal, [sh, j] palatal alveolyar undoshlardir.

Ingliz tilida [s, z] apikal alveolyar undoshlari hisoblanadi. Burun tovushlari [m, n, ŋ] - [m, n, ŋ] har ikkala tilda ham bir-biriga mos keladi, lekin ularning artikulyatsion, akkustik va fonologik xususiyatlari turli xildir. Ingliz tilida [n] alveolyar

va apikal, o'zbek tilida [n] dorsal, dental tovush hisoblanadi. Ingliz tilida [ŋ], tovushi so'z tarkibi tomondan bo'g'inlarga bo'lganda, ajralmas fonemadir va u hech qachon ikki bo'g'inga ajralmaydi. O'zbek tilida ham [ŋg] fonemasi ajralmas fonema hisoblanadi, masalan, (daftaring- your notebook), lekin o'zbek tilida bu fonema alohida ikkita bo'g'inga ajrala oladi, masalan: [n-g] qo'linga (qo'-lin-ga)- to your hand, singlinga (sing-lin-ga)- to your sister [Abduazizov, 2007, 81-b].

Ingliz tilida [l] fonemasi ikki xil - aniq va mavhum shaklga ega. Bunday holat o'zbek tilidagi [l] undoshiga hos emas. Ingliz tilidagi [w] sonor tovushi o'zbek tilida uchramaydi. Ingliz tilida [r] kakuminal, post - alveolyar tovush hisoblansa, o'zbek tilida [r] titroq tovush hisoblanadi. [Abduazizov, 1986, 68-b].

Ingliz tilida jarangli va jarangsiz juftliklar opositsiyasi sakkizta.

[p-b], [t-d], [f-v], [s-z], [ʃ-ʒ], [θ-ð], [tʃ-dʒ], [k-g].

O'zbek tilida ham jarangli va jarangsiz juftliklar soni sakkizta.

[p-b], [t-d], [s-z], [f-v], [k-g], [sh-j], [ch-dj], [x-g'].

O'zbek va ingliz tillarining konsonantlar sistemasidagi alohidaliklarni hisobga olgan holda ingliz tili tovushlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. O'zbek tilidagi tovushlarga o'xshash inglizcha tovushlar [p, b, m, f, v, sh(ʃ), j(ʒ), ch(tʃ), j(dʒ), k, g, ng(ŋ), h].

2. O'zbek tilidagi tovushlarga yaqin, lekin qisman farq qiluvchi ingliz tili tovushlari. Bular [t, d, n, r]

3. O'zbek tilida uchramaydigan ingliz konsonantlari [w, ð, θ] va ingliz tilida uchramaydigan o'zbek tili undoshlari [q, x, g'].

Shu bilan o'zbek va ingliz tillarining konsonantlar sistemasida o'xshashliklar va farqlar bor. O'xshashliklar fasilitatsiya deyiladi va ular ingliz tilini o'rganishga yordam beradi. Farqlar esa interferensiya deyiladi ular ingliz tilini o'rganish jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi va xatolarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov. A. A. English Phonetics. Toshkent, 2007.
2. Abduazizov. A. A. Theoretical phonetics of modern English, Toshkent, 1986
3. Iriskulov. M. T. English Phonetics, Toshkent, 2007.